

UMAR SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING IJODIY FAOLIYATI VA UNGA TA'SIR QILGAN OMILLAR

Pulatova D.N.

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar

kafedrasi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Sherboboyev M.A.

Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b.dotsenti,(PhD)

ANNOTATSIYA

Biror olimning hayoti va faoliyatini o'rganishda u yashagan davrda jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va ilmiy holatga to'xtalib o'tish muhim hisoblanadi. Chunki, shaxsnинг olim bo'lib shakllanishida u yashagan zamon muhiti alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Sa'duddin Taftazoniyning hayoti va faoliyatini batassil yoritish, u yashagan davrga to'xtalib o'tishni taqazo etadi. Shuningdek, olim yashagan davrni o'rganish o'sha davr jamiyatida islom dini va olimlarining o'rni va mavqeini, davlat va din munosabatlari haqida to'la tasavvur hosil qilishga asos bo'ladi.

Tayanch iboralar: Movarounnahr, Sa'duddin Taftazoniy, Amir Temur, Temuriylar, ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at,

ABSTRACT

When studying the life and work of a scientist, it is important to take into account the political, social and scientific situation in society at the time he lived. Because the environment of the time in which a person lives is of particular importance in the formation of a scientist. In particular, a detailed coverage of the life and work of Saaduddin Taftazani requires focusing on the period in which he lived. In addition, studying the era in which the scientist lived provides the basis for forming a complete picture of the role and status of Islam and scientists in the society of that time, as well as the relationship between the state and religion.

Keywords: Moworunnahr, Saaduddin Taftazani, Amir Temur, Temurids, education, science, culture, art,

KIRISH

Mas'ud ibn Umar Sa'duddin Taftazoniyning ijodiy faoliyati XIV asrning birinchi yarmi va oxirlariga (1322-1392) to'g'ri keladi. XIV asrning birinchi yarmida Movarounnahrda mo'g'ullar (1221-1370) hukmronligi tugab, temuriylar (1370-1501) hukmron bo'lib, o'z mavqelarini mustahkamlab borayotgan edilar. Tabiiyki, bunday siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar o'sha davrda yashab ijod etgan olimlar faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, mutkallim Sa'duddin Taftazoniy hayoti va

ilmiy ijodida Samarqanddagi Sohibqiron Amir Temur sultanati va saroyi hamda Movarounnahr o'lkasidagi turli firqalanishlar muhim ahamiyat kasb etgan.

Markazlashgan Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishi Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida muayoyan davrda tinchlik hamda barqarorlik bo'lishiga sabab bo'ldi. Natijada, bu mintaqalar Sharqda har tomonlama rivojlangan markazlarga aylandi. Xususan, Movarounnahr va Xuroson ilm-ma'rifat markazlaridan sanalgan. Shuningdek, islom dini va falsafasi bo'yicha ham yetakchi bo'lib, XII-XIII asrlarda birgina Movarounnahrda hanafiy mazhabiga mansub olti ming faqih, buxorolik "Oli Moza" oilasi a'zolari himoyasi ostida hayot kechirib kelganlar.[1.4]

Yurtimizda keng tarqalgan hanafiy mazhabining yirik namoyandalaridan biri Sa'duddin Taftazoniydir. Bu olim nafaqat islom olamida "sa'd al-milla va ad-din", "sa'd al-imom al-alloma al-faqih al-adib al-hanafiy" va "sharqning olimi" kabi nomlar bilan mashhur,[2.281-282] balki o'zining ko'plab qomusiy asarlari bilan jahon ilm-faniga katta hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi. Olimning to'liq ismi Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh ibn Shamsuddin al-Qoriy bo'lib, Xurosonning Naso (hozirgi Turkmaniston, Ashxabod) shahridagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan.[3.12] Mashhur muarrix olim Yoqut Hamaviyning (1179-1229) ta'kidlashicha, bu shahar, arab musulmon lashkarlari Xurosonga kelganlarida uerdagi barcha erkaklar jang qilish uchun shaharni tark etganliklarini va faqat ayollar qolganini ko'rib, bular "naso" (ayollar) ekan, ular bilan urush qilmang deb, ayollarga nisbatan kuch ishlitmagan ekanlar. Shu sababdan bu shaharning nomi Naso deb atalgan.[3.5] Tarixda "nasoiy" nisbasiga ega ko'plab olimlar o'tgan. Saraxs bilan Naso orasida ikki kunlik, Marv bilan besh kunlik, Abivard bilan bir va Nishopur bilan olti yo etti kunlik masofa bo'lgan. SHahar iqlimi toza va mo"tadil bo'lgan.[3.12]

Allomaning tavallud topgan yili to'g'risida manbalarda turli ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi manbalarda 1322 yil[3.5] ko'rsatilsa, boshqalarida 1312 yil keltirilgan.[3.12]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sa'duddin Taftazoniy yoshligidanoq ilm olishga katta qiziqish bilan qaragan. Sa'duddin Taftazoniyning nutqida biroz duduqlik bo'lgan. U Taftazon qishlog'ini ilm olish maqsadida tark etib Naso shahriga boradi. Lekin, manbalarda Naso shahrida qancha muddat ta'lim olganligi haqida aniq ma'lumot uchramasa-da, xattotlik, imlo qoidalari, Qur'oni karimni yod olish va islom dini ta'limotlarini chuqur o'rganganligi keltiriladi. SHundan keyin, Ibn al-Imodiy aytishicha, Sa'duddin Taftazoniy Naso shahridan ta'lim olish uchun Samarqandga yo'l olgan. Sa'duddin Taftazoniy ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san'ati va mantiq ilmini o'n olti yoshigacha o'z davrining yirik olimlari Azududdin al-Iyjiy (vaf. 1365 y.) va Qutbiddin Muhammad ar-Roziy

(vaf. 1365 y.) lardan o‘rgangan.[6.163] U alloma Azududdin al-Iyjiyning shogirdlari orasida o‘zining salohiyati bilan ajralib turgan.[7.78]

1341 yili Jurjoniya (Gurganch) shahriga boradi. Bu paytga kelib bu shaharda Sa’duddin Taftazoniyning alloma Azduddin Abdulvahhab Ibrohim az-Zanjoniyning nahvga oid “at-Tasrif” kitobiga o‘n olti yoshida (1338 y.) [5.20] yozgan sharhi ma’lum va mashhur bo‘lib ketgan edi. Sa’duddin Taftazoniy bu shaharda ilmiy ijodga, beباوو asarlar yozishga qattiq bel bog‘laydi va ko‘pgina shogirdlar tayyorlaydi hamda o‘zining balog‘at ilmiga oid “al-Mutavval ala at-Talxis” nomli asarini ham mana shu erda yozib tugatadi.[7.79]

Sa’duddin Taftazoniyning ilm olish va ta’lim-tarbiya berish maqsadida butun umri davomida ko‘plab joylarga safar qilishiga qaramasdan, farzandlarini ham ilm olishiga alohida e’tibor bergan. Manbalarda, allomaning uchta o‘g‘li haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ular ham o‘z davrining mashhur olimlari bo‘lib etishgan. Muhammad ibn Mas‘ud at-Taftazoniy ismli o‘g‘li ham mashhur olimlardan bo‘lib, Amir Temur majlislarida qatnashagan.

Sa’duddin Taftazoniy Sohibqiron Amir Temur taklifi bilan Samarqandga keldi. Sa’duddin Taftazoniy ko‘plab asarlarini Movarounnahr shaharlarida yozgan. Allomaning saroya taklif etilishi to‘g‘risida Xondamir o‘zining “Habib as-siyar” asarida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Sohibqiron Amir Temur Xorazmga 770-771/1369-1370 yillarda qilgan yurishi paytida Saraxs hokimi Muizzuddin Husayn Amir Temurdan Taftazoniyni Saraxsga yuborishini so‘raydi. Amir Temur uning iltimosiga binoan Taftazoniyni u erga yuboradi. Taftazoniy Samarqanddan ketgach, Amir Temurga uning qanchalar bilimdon, olim ekanligini aytganda qilgan ishidan afsuslangan. Amir Temur Taftazoniyga Samarqandga qaytib kelishi haqida noma yuboradi. Taftazoniy Hijoz safariga otlanayotganligi bois birinchi taklifni o‘zi rad qilgan. Lekin, Amir Temur ikkinchi bor taklif qiladi. Ushbu taklifni Taftazoniy rad eta olmay poytaxtga, ya’ni Samarqandga tashrif buyuradi. Bu voqeа Amir Temur 1387 yili Sherozga yurish qilgandan keyin sodir bo‘lgan”. [2.66]

1377 yilda Sa’duddin Taftazoniy, do‘sti va hamkori Mir Sayyid Sharif Jurjoniy tufayli Sherozga Shoh Shujo’ huzuriga taklif qilinadi. Amir Temur bu shaharni bosib olgandan keyin, ikki olim ham Samarqandga keladi. Ikki do‘st o‘rtasida Amir Temur saroyida katta ilmiy bahslar bo‘lgan.

Olimning vafoti haqida ham manbalarda turli xil sanalar ko‘rsatilgan. Jumladan, “Favoid al-bahiya”da olimning vafoti 1387 yil,[8.134] Xondamirning “Habib as-siyar” asarida 1394-1395 yil,[2.69] Hoji Xalifaning “Kashf az-Zunun” asarida 1390 yil,[9.219] Ahmad ash-Shantoviyning “Doirat al-ma’orif al-islomiya”, imom Suyutiyning “Bug‘yat al-vuot” asarlarida 791/1389 yil, SHarafuddin Roqimiyning

“Tarixi tomm” asarida 794/1392 yil [10.285] tarzida keltirilgan. Xayruddin Zirikliy va Sharafuddin Roqimiy asarlarida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, alloma Samarqandda vafot etgan bo‘lsa-da, Saraxsga dafn etilgan.[9.22] Ko‘pchilik manbalarda Sa’duddin Taftazoniy sakson yoshida vafot etgani ta’kidlanadi va u 794/1392 yilga to‘g‘ri kelib, shu ma’lumot asosli hisoblanadi.

Amir Temur faoliyatida ikki davr yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi davr 1360-1386 yillarni o‘z ichiga olib, Mavarounnahrni birlashtirish, o‘zaro urushlarga chek qo‘yish bilan xarakterlanadi. Ikkinci davr esa, 1386-1402 yillarni qamraydi va uch yillik, besh yillik va etti yillik urush deb nomlangan harbiy harakatlar bilan ifodalanadi.[11.15]

Qadimiy Turon va Turkistonda Sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi davlat-qudratli va buyuk imperiya vujudga keldi. 35 yillik qisqa vaqt davomida Sohibqiron Amir Temur faqat Movarounnahrninggina hukumdori bo‘lib qolmasdan, u Xorazm, Oltin O‘rda, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, Eron, Turkiya, Hindiston, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, G‘arbiy Osyoning bir qator mamlakatlari, Qora dengiz sohillari, Janubiy Rossiya, Iraq, Suriya va Misrgacha - jami 27 mamlakatni istilo qilib, juda katta va keng hududni o‘z ichiga olgan buyuk imperiyani tashkil qildi. Sohibqiron Amir Temur tufayli Markaziy Osiyo halqlarining milliy mustaqillikka erishuvi nafaqat Movarounnahrning o‘zida balki shu mintaqadagi boshqa mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlarga olib keldi.

Sohibqiron Amir Temur davlati o‘z davri ijtimoiy-siyosiy tuzumining yuqori bosqichi hisoblanadi. Bu davrda erga egalik munosabatlari hayotga keng joriy etildi. Yerga egalik qilishning cheklanmagan hukmronligi o‘rnatildi. Qaysi mamlakat bosib olinsa, o‘sha yerda erga egalik qilishning feodal munosabatlari qaror topa bordi.

Yetuk sarkarda hokimiyatni boshqarishda faqat davlat apparatini mustahkamlashga, mamlakatdagi mayda va yirik, lekin tarqoq feodallarni birlashtirishga harakat qilibgina qolmasdan shu bilan birga mamlakatning siyosiy qudratini oshirish uchun iqtisodiy qudratini ham oshirishga, keng xalq ommasining ma’naviyatini ham yuksaltirishga katta e’tibor berdi. U o‘zi ishg‘ol qilgan xorijiy mamlakatlarda qo‘lga kiritayotgan moddiy va ma’naviy intellektual boyliklarni o‘z xalqi moddiy va ma’naviy-intellektual boyliklariga qo‘shtan holda ularni elu yurt obodonchiligi, shahar va qishloqlarning gullab-yashnashiga, xalq farovonligiga sarf qildi. Sohibqiron Amir Temur davrida qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlandi.

Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvi borasida mukammal qonunlar to‘plami bo‘lgan “Temur tuzuklari”ni ishlab chiqdi. U Islom dini mafkurasi va ahkomlariga suyanib, o‘z “Tuzuklari” asosida el-yurtni boshqardi va mamlakatni

obod etdi.[12.4] Sohibqiron Amir Temur davlatni qattiqqo'llik bilan boshqardi. Dehqonlar g'allani yig'ib olmasdan oldin, soliq toplash qat'iy man etilgan.

Mamlakatda amalga oshirilgan ulkan ishlarning hammasi davlat boshqaruv tartibi orqali amalga oshirilardi. Asosiy bosh boshqarma-Devoni Buzurgdan tashqari, har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma ham bor edi. Devon barcha davlat ishlari: soliq yig'ish, tartib saqlash, jamoat binolari-bozorlar, yo'llarni nazorat qilish bilan shug'ullanar edi. Davlat ishlarida ham, harbiy yurishlarda ham Sohibqiron Amir Temurning asosiy va sodiq tayanchi o'z qo'shinlari edi.

Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo va unga qo'shni bo'lgan yurtlarni birlashtirib, feodal tarqoqlikka barham bergach, Samarqandga tasarruf etilgan barcha mintqa va viloyatlardan mashhur olim va hunarmandlarni to'play boshlagan. Uning maqsadi asrlarda bo'lgani kabi islom duyosining ilmiy markazlari sifatida tanilgan Xorazm, Buxoro va Bag'doddagi "Baytul hikma" ilmiy maktabi an'analarini Samarqandda tiklash bo'lgan.[6.163]

Ayniqsa, shaharlar qurish gurkirab rivojlana boshladи, ularda esa ilm-fan, madaniyat va san'at gullay boshladи. U qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o'ljasи – shu o'lkaning rassomlari, mohir ustalari hisoblangan. U Bursa kutubxonasiдagi kitoblarni yuk tashiydigan hayvonlarga ortib, Samarqandga ko'chirtirgan.[13.33]

Sohibqiron Amir Temur saroyida xizmat qiluvchi olimlar orasida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulloh Lison, Mavlono Bahriiddin Ahmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, Mavlono Sa'duddin Taftazoniy, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar boshqalar bor edi.[11.22]

Manbalarda ko'rsatilishicha, Sohibqiron Amir Temur turk, arab va eron tarixini yaxshi bilgan. Aniq fanlarga hurmat bilan qaragan, amaliy jihatdan foyda keltiradigan har qanday bilimni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan har bir masalani hal etishda shu soha bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan. U odatda tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik, diniy ilm sohiblari bilan suhabatlar o'tkazib turardi. Ularning maslahatlaridan foydalanardi va davlatni odil boshqarishda ularga suyanardi.

XULOSA

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur zamonasining bilimdon hukmdorlaridan bo'lib, mamlakatni rivojlantirishda ilm-fanning ahamiyati beqiyos ekanligini yaxshi tushungan va olimu ulamolarga ehtirom bilan qaragan.[14.14] SHuningdek, Nizomiddan Shomiy "Zafarnoma" asarida bu to'g'rida quyidagicha

bayon qiladi: “Yuqori darajadagi fozillar va ulardan quyiroq kishilarni bir-biridan farq qilib, har birini o‘z martabasiga ko‘ra barqaror tutadi. Har bir kishini fazli va donishmandligi darajasiga loyiq maqomga qo‘yadi. Mashoyixlar va solih bandalarni ulug‘laydi, ular bilan hamsuhbat va hammajilis bo‘lishga rag‘bat ko‘rsatadi”.[15.20]

O‘z sohasi fanida alloma bo‘lgan kishilar saroyga to‘plangan. Sohibqiron Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morlik, ilmi nujum, adabiyot, tarix, musiqa sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor bergan.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Sohibqiron Amir Temur tarixiy juda qisqa muddat ichida Turon zaminidagi tarqoqbeklik va xonliklarni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. O‘z saltanida yuksak ilmiy-ma’naviy muhitni yaratdi. Ushbu muhitda esa juda ko’plab olim va ilm odamlariga xomiylilik qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjoni. Marg‘inoniy va uning izdoshlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2000. – B. 4.
2. Abdulhusayn Navotiy. Rijoli kitob habib as-siyar. – B. 69.
3. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-aqid an-nasafiya. Istambul: Maktabat al-Furqon (yili ko‘rsatilmagan). – B. 12.
4. Hamaviy. Mu’jam al-buldon. J. V. – B. 281-282.
5. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. – T.: Ma’naviyat, 1998. – B. 20.
6. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Maqosid. – B. 78.
7. Laknaviy, Muhammad Adulhay al-Hindiy. Al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanfiya. – Qohira: Dor al-kitob al-islamiya, 1324/1906. – B. 134.
8. Imam Suyuti. Bug‘yat al-vuot. J. II. – B. 285;
9. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – T.: Fan, 1993. – B. 15.
10. Muhammadjanov A. Temur va temuriylar sultanati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. – B. 4.
11. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: G‘.G‘ulom, 1990. – B. 33.
12. Po‘Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
13. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN’ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
14. Fayziev T. Temuriylar shajarasi. – T.: YOzuvchi, 1995. – B. 14.